

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi
professori, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: umarovmamur@gmail.com
ORCID: 0009-0008-1982-1630*

QO'QONDAGI JADIDLAR TEATRI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qo'qon shahrida jadidlar harakati va jadidlar teatrining shakllanish jarayoni tarixiy-madaniy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Unda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo'qondagi ijtimoiy-madaniy muhit, ma'rifatparvar ziyolilar faoliyati hamda teatr san'atining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar yoritilgan. Xususan, Muqimiy, Furqat, Isoqxon Ibrat va Hamza kabi ijodkorlarning ma'rifatparvarlik qarashlari, adabiy va pedagogik faoliyati, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi sa'y-harakatlari hamda teatr san'atiga munosabati tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** tinchlik ahdi, jadidlar harakati, jadidlar teatri, dramaturgiya, ma'rifatparvarlik, ijodiy muhit, havaskorlik to'garagi, rejissura.*

ТЕАТР ДЖАДИДОВ В КОКАНДЕ

***Аннотация.** В данной статье с историко-культурной точки зрения анализируется процесс формирования джадидского движения и джадидского театра в городе Коканде. Освещаются общественно-культурная среда Коканда конца XIX – начала XX века, деятельность просветителей-интеллектуалов, а также факторы, оказавшие влияние на развитие театрального искусства. В частности, анализируются просветительские взгляды, литературная и педагогическая деятельность таких представителей творческой интеллигенции, как Муками, Фуркат, Исхокхон Ибрат и Хамза, их усилия по созданию новометодных школ, а также отношение к театральному искусству.*

***Ключевые слова:** мирный договор, джадидское движение, джадидский театр, драматургия, просветительство, творческая среда, любительский кружок, режиссура.*

THE JADID THEATER IN KOKAND

Abstract. *This article analyzes the process of the formation of the Jadid movement and Jadid theatre in the city of Kokand from a historical and cultural perspective. It examines the socio-cultural environment of Kokand in the late nineteenth and early twentieth centuries, the activities of enlightened intellectuals, and the factors that influenced the development of theatrical art. In particular, the article analyzes the enlightenment views, literary and pedagogical activities of such prominent figures as Muqimi, Furqat, Ishoqxon Ibrat, and Hamza, their efforts to establish new-method schools, and their attitudes toward theatrical art.*

Keywords: *peace treaty, Jadid movement, Jadid theatre, dramaturgy, enlightenment, creative environment, amateur theatre group, directing.*

Qo'qon xonligining yirik shahri Toshkent 1865-yili rus qo'shinlari tomonidan taslim qilinadi. Xudoyorxon urushlar sabab bo'shab qolgan xazinasini tiklab olish uchun Rossiya hukumati bilan 1866-yili tinchlik ahdini tuzadi. Bu ahd tuzilganida Muqimiy 16 yoshga kirgandi. U o'zbek, tojik va arab tillarida o'qish va yozishni bilgani uchun sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar sababini tushunardi. Bu davr muhitini o'rgangan adabiyotshunoslar Muqimiyning ijodiga Xudoyorxon saroyida jamlangan san'atkorlar, ayniqsa, qiziqslarning ijodiy izlanishlari ta'sir ko'rsatgan deb hisoblashadi. Sababi, 1876-yili Qo'qon xonligi batamom tugatilgach, tarqab ketgan qiziqslar soni 30 nafar edi.

Muqimiy ijodidagi satirik mavzular, sayohatnomasidagi yurt manzarasi uni mashhur qiladi. U bilan tengdosh boqchasaroylik Ismoilbek ham 1850-yilda tug'ilgan edi. Uni mashhur qilgan "Usuli jadid" maktabi bo'ldi. Sababi to'rt oyda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish mumkinligini hamda diniy va dunyoviy bilim berish mumkinligini amalda isbotlagan edi. Uning izlanishlari Qo'qonga ham o'zi chiqargan gazetasi orqali yetib kelgandi.

Muqimiydan so'ng Qo'qonni jahonga tanitgan Furqat bo'ldi. U Muqimiydan 9 yosh kichik edi. "Ahvolot" nomli esdaligida 7 yoshdan 11 yoshga yetgunga qadar "Qur'on"ni yod olib, o'qish va yozishni to'liq o'zlashtirgani uchun xalifalik

maqomida dars berishga ruxsat oladi. Farosatli va o'ta qobiliyatli Furqat dars berish davomida o'z ilmidagi bo'shliqlarni to'ldirishga kirishadi. Qiroatni o'rganish bilan birga arab tilining sarf va nahviga oid talablarni ham o'zlashtiradi. Urush avjiga chiqqan 1874-yili madrasadagi o'qishini to'xtatishga majbur bo'ladi. Qo'qon xonligi 1876-yili tugatilgach, ruslar tashkil qilgan Yangi Marg'ilonda tog'asining do'konida ishlay boshlaydi va "Turkiston viloyati" gazetasidagi xabarlar bilan tanishadi.

Furqat qayerga borsa, darhol ilm ahli bilan tanishib oladi. Yangi Marg'ilonda Qori aka hamda Hoji domlalar yordamida dunyodagi o'zgarishlardan xabardor bo'ladi. Otasi Qo'qonga chaqirgach, Muqimiy, Zavqiy, Nisbat, Muhsiy kabi shoirlar ijodi bilan tanishib, she'riyatga ixlosi ortdi va Furqat taxallusi bilan she'r yoza boshladi. Ilmlilar "Furqat" (judolik) o'rniga "Farhod" (shodlik) taxallusi ma'qul ekanini aytishdi. Unga Furqat ma'qul edi va Zokirjon shu taxallus bilan mashhur bo'ldi. U 27 yoshida Marg'ilonga keldi va ziyolilar – Xujaxon Roziy, Umidiy, mulla Rizq, Isoqxon Ibrat kabi shoirlar davrasiga qo'shildi. Toshkentga borish orzusi 1889-yili 30 yoshida amalga oshdi. Mashhur shoirni toshkentlik ziyolilar kutib oldi. Uni 1890-yilda "Turkiston viloyati gazetasi" muharriri hamda erkaklar gimnaziyasi direktori N.A.Ostroumov bilan tanishuvi tarixiy voqea bo'ldi.

Serqirra bilim egasini Ostroumov o'zlari yaratgan muhit bilan tanishtira boshladi. Shoir esa ko'rganlaridan zavqlanib she'rlar yoza boshladi, muharrir esa uni o'zi rahbar bo'lgan gazetada e'lon qilib bordi. Ruslar o'zbek ziyolisining ularning madaniyatini targ'ib qilishidan xursand bo'lsa, Furqatning maqsadi esa ilg'or fikrlardan foydalanish orqali yurtdoshlarining fikrini yuksaltirish edi. Uning Muqumiyga yozgan xatida rus tilini o'rganganini, tarjimonlik qilib kun ko'rayotgani ma'lum bo'ladi.

Haj safarini rejalashtirgan Furqat 1891-yili Samarqandga boradi. U yerdan Buxoroga, so'ngra Kogonga o'tib, poyezdga o'tirib, Marv, Ashxobod, Boku, Batumi orqali Istanbulga yetib oladi. 1892-yili Gretsiya bilan Belgiyaga ham borib keladi. Sayohat taassurotlarini Ostroumovga jo'natib turadi, u esa gazetada e'lon qilib

boradi. 1892-yili Jiddaga yetib borib, haj ziyoratini bajarib, Makkadan Madinaga qaytib, u yerdan Bombeyga jo'nab ketadi. 1893-yili Kashmir tomon, so'ngra Yorkentga kelib uylanadi. Rossiya elchixonasidagi musulmonlar idorasida kotib bo'lib xizmat qiladi.

Akademik Mamajon Rahmonov yurtdoshi Furqatning she'rlarida ulug'langan rus teatri spektakllarining jadidlar teatrini shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Olim Furqatning serqirra ijodi, dunyo kezib ko'rganlarini izohlagani, yurtini rivojlantirmoqchi bo'lgan ziyolilarga, teatr tuzmoqni rejalashtirayotgan jadidlarga ijobiy ta'sir qilgan deb hisoblaydi. Shuningdek, o'lkaga joylashib olgan harbiylar va ularning oilalari uchun sharoit zarur edi. Yashash uchun qulaylikni o'qituvchilar, vrachlar, turli kasb egalari yaratishi aniq edi. Lekin ularning bo'sh vaqtlarini o'tkazish uchun turli mashg'ulotlar – havaskorlik to'garaklari, konsert va tomoshalar – tashkil qilish zaruratga aylandi. Natijada, markazdan professional teatr truppalarining gastrollari tashkil qilindi. Ularning tomoshalarini ko'rgan ziyolilar o'zlarida ham shunday truppalar bo'lishini orzu qila boshladi. Shundan so'ng, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon aholisining turmush tarzida ham o'zgarishlar boshlandi. Ko'chib kelganlar orasidagi ziyolilar mahalliy aholining urf-odatlarini, folklorini, tillarini o'rgana boshladi. Savdo-sotiq ishlari aholining o'zaro yaqinlashishiga sharoit yaratardi.

Ahmad Donish yoki Furqatni hayratlantirgan tomoshalar haqidagi taassurotlar gazetalarda e'lon qilinishi yoshlarga ta'sir o'tkazardi. Ular rus-tuzem maktablariga kirib, ularning tilini o'zlashtira boshladi. Bunday yoshlar Qo'qonga gastrolga kelganlarning spektakllariga kirishgani haqidagi xabarlar ham gazetalarda e'lon qilinardi. Qo'qondagi rusiyabon ziyolilar o'zlarining havaskorlik truppasini tuzib, spektakl sahnalashtirilgani qizg'in muhokama qilindi. Bepul tomoshalarga mahalliy aholi ham kelgani gazetada e'lon qilindi.

“Туркистанские ведомости” gazetasining 1885-yilgi 23-aprel sonida mahalliy aholi rus tilidagi spektaklni ko'pchilik bo'lib tomosha qilgani maxsus e'lon qilindi. 1890-yildan boshlab Samarqand va Toshkentga gastrolga kelgan teatr

truppalari Qo'qon hamda Yangi Marg'ilonga ham keladigan bo'ldi. Avvallari bu yurtda faqat harbiylar ko'p bo'lganligi uchun teatr truppalari xarajatini qoplamas edi. Mahalliy aholi asta-sekin ularni tanib-o'rgangach, tomoshabinlar soni ortib bormoqda edi.

Qo'qondagi ijodiy muhit haqida gap ketganda, adabiyotshunoslar shoir Muhiy Ho'qandiyni ham eslashadi. U Xudoyorxonning chet eldagi elchisi sifatida tanilgan edi. 1874-yilda Qo'qondagi tartibsizliklar tufayli Muhiy haj safariga jo'nab ketadi. 1876-yili Hoji maqomida Qo'qonga qaytadi. Shu yili Xudoyorxonni taxtdan voz kechishga majbur qilishadi. Xonni aldab, Peterburgga chaqirib, Orenburgda poyezddan tushirib, qamoqqa olinadi. Bunday xabarni topgan Muhiy bo'sh qolgan taxtga valiahd shahzoda Nasriddinxonni chaqirtirib, boshqaruvni qo'lga olishiga ko'maklashadi. Lekin 1876-yili 19-fevralda Qo'qon xonligi tugatilib, o'rniga Yangi Farg'ona viloyati tuzilganligi e'lon qilinadi. Muhiy ishsiz qoladi. Afg'onistonga qaytmaydi va Sebzor Hazrat madrasasi huzurida yashab, ijod qilib, mashhurlikka erishadi.

Qo'qonda ilk bor jadidlar g'oyasini anglab yetgan va unga amal qilgan Isoqxon Ibrat shaxsiga alohida to'xtalish lozim. U 1862-yili To'raqo'rg'onda ziyoli oilada tug'ilgan. 1878–1886-yillarda Qo'qondagi madrasada ta'lim olish jarayonida Turkiston o'lkasida chiqadigan gazetalarni, tashqaridan keladigan “Tarjimon”ni ham o'qib, yangiliklardan xabardor bo'lib bordi. O'zbek, arab, fors va rus tillarini biladigan Ibrat 1886-yili To'raqo'rg'onga qaytib, yangi maktab ochdi. “Qadim”chilarga ma'qul bo'lmagan bu maktab ko'p o'tmay yopildi. 1887-yili onasi bilan haj safariga boradi. Onaizor Makka shahrida vafot etadi. Ibrat taqdir taqazosi bilan Istanbul, Sofiya, Kobul, Jidda, Makka, Madina, Bombey, Kalikutta shaharlarida yashab, arab, fors, hind-urdu, ingliz va fransuz tillarini o'rgandi. To'raqo'rg'onga 1896-yilda qaytib kelgan Ibrat “Olti til lug'ati” (“Lug'ati satta olsana”) nomli kitobini nashr qildi. Bu lug'at 1900-yili Toshkentdagi “Il'in” bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Mashhurlikka erishgan Ibrat shu yili o'z uyida yangi maktab ochdi va 30 nafar bolani o'zi tuzgan dastur asosida o'qita boshladi.

Maktabdagi o'qituvchilar ilg'or uslubdan xabardor edilar. Maktab zamon talabi darajasida jihozlangan, keng, yorug' xona, partalar, stol-stullar Ibratning dunyo kezgan va ilg'or tizimni ko'rganligidan dalolat berardi. U 1907-yilda To'raqo'rg'onda ilk tipografiya ochdi va o'z uyida kutubxona tashkil qildi. Kutubxonaga bilgan tillariga oid kitoblarni jamladi. Jadidlarning 50 dan ortiq darsliklarini yig'di. Mashhur va adolatli qozi Ibratni Toshkentdagi Munavvarqori "Usuli jadid" maktabiga taklif qildi. Uning serqirra fazilatlariga haqida 1909-yilda "Turkiston viloyatining gazetisi"da maqola e'lon qilindi. Ibratning ona tili yozuviga bag'ishlangan "Yozuvlar majmuasi", "Tarixi madaniyat", "Tarixi Farg'ona" nomli ilmiy asarlari 1912-yili nashrdan chiqdi.

O'zining ziyolilari bilan dong taratib kelgan Qo'qonda 1889-yili yana bir daho tug'ildi. Jadidlar g'oyasini amalga oshiradigan Hamza Qo'qondagi ziyoli oilada dunyoga keldi. Hamzaning otasi o'zbek, arab, fors tillarini biladigan tabib bo'lganligi uchun o'g'lining savodini chiqarib bo'lgach, 1899–1906-yillarda Qo'qondagi madrasada o'qitdi. Bu davrda rus tilini ham o'rgandi. 1909-yili Buxoroga ilm izlab bordi. Mahalliy jadidlar bilan tanishdi. Shialar va sunniylar janjali boshlangach, Qo'qonga qaytdi va shu davrining gazetalarini o'qiy boshladi. O'zining ilk ijod namunalarini o'sha gazetalarga jo'natib turdi.

Munavvarqori haqida ma'lumotga ega bo'lgach, u bilan tanishish uchun 1910-yili Toshkentga keldi. Uning ko'magida Qashqar mahallasida "Usuli jadid" maktabini ochdi. Maktab yopilgach, 1911-yili Qo'qonda yana shunday maktabda faoliyat boshladi. Bu maktab ham yopilgach, 22 yoshli Hamza haj safariga otlandi. 1914-yili yurtiga qaytib, yana pedagoglik ishini boshladi. 1915-yildagi tintuvdan omon chiqdi. Jadidlar ochgan maktablar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" nomli darsliklar yozib tarqata boshladi. Avloniyning "Ustodi avval", "Adabi avval", "Adabi soniy" (yoki Muallami avval, Muallami soniy) nomli kitoblaridan nusxa ko'paytirib tarqatdi. Uning "Qiroat kitobi" shoirni "Hofiz qori" darajasida ulug'ladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo'qon shahri Turkiston hududidagi muhim ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy markazlardan biriga aylangan. Ushbu davrda shakllangan ilg'or fikrlar, ma'rifatparvarlik qarashlari va jadidchilik harakati jamiyatning ta'lim, adabiyot, san'at va madaniyat sohalarida yangilanish jarayonlarini tezlashtirdi. Ayniqsa, Qo'qon muhitida faoliyat olib borgan ziyolilar va ijodkorlarning sa'y-harakatlari teatr san'atining shakllanishi uchun muhim zamin yaratdi.

Muqimiy, Furqat, Muhiy, Isoqxon Ibrat hamda Hamza kabi ma'rifatparvarlarning ijodiy va pedagogik faoliyati xalqning dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy bilim va madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qo'qonga rus teatr truppalarining gastrol safarlarining tashkil etilishi, mahalliy aholining spektakllarga qiziqishining ortishi hamda havaskorlik teatr jamoalarining vujudga kelishi hududda milliy teatr truppasining shakllanishiga xizmat qildi.

O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Qo'qondagi jadidlar teatri faqatgina sahna tomoshalarini namoyish etuvchi madaniy hodisa bo'lib qolmay, balki ma'rifat, milliy o'zlikni anglash va jamiyatni yangilash g'oyalarini targ'ib qiluvchi muhim vositaga aylangan. Ayniqsa, Hamzaning dramaturg, rejissyor va aktyor sifatidagi faoliyati jadidlar teatrining rivojida alohida o'rin tutadi. Uning "Zaharli hayot" nomli sahna asarini yaratib, uni sahnalashtirgani va spektaklda bevosita aktyor sifatida ishtirok etgani jadidlar teatrining amaliy va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov M. *O'zbek teatri tarixi*. – Toshkent: Fan, 1968. – 334 b.
2. Kosimov B. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 400 b.
3. Xamza. *Dramalar. III tom*. – Toshkent: Fan, 1988. – 88 b.
4. Rahmatullayeva D. *Tarix va teatr*. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 320 b.